



XALQ OG‘ZAKI IJODIDA AFSONALAR VA ULARNING MADANIY HAYOTGA TA’SIRI.

Sapayeva Ruhshona Jamshid qizi.

Urganch RANCH texnologiya universiteti.

Аннотация. Ushbu maqola xalq og‘zaki ijodida afsona va miflarni o‘rgandi. Maqola, afsonlaraning mo‘jizaviy, tabiat bilan bog‘liq, ilmiy va diniy aspektlarni tahlil qilib, ularni bugungi kundagi madaniy hayotga ta'sir ko‘rsatishni ko‘rsatadi.

Калит so‘zlar: Xalq afsonlari, mif, asotir, mo‘jizaviy va tabiat afsonlari, xalq qadriyati, tush, iloha va mabudlar.

Аннотация. В данной статье исследуются мифы и легенды фольклора.

В статье анализируются чудесные, природные, научные и религиозные аспекты легенд и показано их влияние на культурную жизнь сегодня. Было подчеркнуто, что легенды важны для отражения верований, ценностей и национальной самобытности людей.

Ключевые слова: Народные предания, мифы, легенды, чудесные и природные легенды, народные ценности, сны, боги и богини.

Abstract. This article explores myths and legends in folklore. The article analyzes the miraculous, nature-related, scientific and religious aspects of legends and shows their impact on cultural life today. It was emphasized that legends are important for reflecting people's beliefs, values and national identity.

Key words: Folk legends, myths, legende, miraculous and natural legends, folk values, dreams, gods and goddesses



Kirish: Xalq ogʻzaki ijodi (falklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq ogʻzaki ijodi yuzaga kela boshlaydi. Mif (afsona, rivoyatlar, asotr) qadimgi insonlarning olam va borliq haqidagi fikrlari koinot yaratilishi, insonni dunyoga kelishi, oʻsimliklar va hayvonlar, osmon jismlari, bud va ilohalarga sigʻinish, tabiyat hodisalari va ularning mohiyati. Shu kabi ularning oʻz dunyo qarashi va bu dunyoqarashlarning, hozirgi kunda ham sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Afsonalarning yuzaga kelish sabablari: Afsona va miflar hech qanday ilmiy asoslab berilmagan. Shunchaki hayoliy va tasavvur muxsuli xolos. Ular uydirma va toʻqima, insonlarning hayotiy tasavvur qilib, hayol orqali paydo boʻlgan. Afsonalarning yuzaga kelish sabablari turlicha, misol qilib aytadigan boʻlsak: safarga chiqqan odam yoʻlda oq tuyasi bor karvoni koʻrsa, uning maqsadi amalga oshadi. Yoʻlovchi uzoqdan boʻrini koʻrib qolsa, uning hayoti yaxshilanadi yoki tulkini uchratsa teskarisi.

Moʻjizaviy afsonalar: Moʻjizaviy afsonalardan biri bu insonlarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Gaya Martan (Kayumars- u Gavomard, ya'ni hoʻkiz kishi deb ham yuritilgan), u ikki vujudan: hoʻkiz va odamdan tashkil topgan.

Tabiat bilan bogʻliq afsonalar. Tabiat afsonalari xalq orasida juda mashhurdir. Ibtidoyi davrda yashagan insonlar yerni hoʻkizlar koʻtaradi, shu sababdan u charchagan paytda u shoxidan bu shoxiga oʻtkazgan payti yer silkinishi (zil-zila) paydo boʻlgan degan taxminlarni ilgari surgan. Albatta bu bir oz haqiqatga yaqin boʻlishi mumkin. Lekin ular yer dumaloq va havodan ya'nikim koinotda muallah turishni bilishmas edi.

Diniy afsonalar: Xalq ogʻzaki ijodida diniy afsonalarni biz "Avesto" kitobidan bilib olishimiz mumkin. Unda hikoya qilinishcha. Kunlardan bir kun havo juda sovib ketadi. Oʻshanda Ahurmazda yashagan davrda u buni oldini olish uchun qoʻrgʻan (var) qururadi. Va unga har xil hayvondan bir juftan joylashtiradi. Ahurmazda bu aqllu qarori bilan hech qaysi janzot qirilib ketmasligi



oldini oladi. Bu esa Ahurmazdaning zehni o'tkirligiga ishora qilinadi. Afsonalarning ijtimoiy ro'li va bugungi madaniy hayotda yuksalishi.

Albatta afsonalarda ham bugungi ijtimoiy ro'li ulkan. Xalq orasida yurgan afsonalrdagi iboralardan "suvga tupurma", kabi tushunchalar bunga yaqqol dalil bo'ladi.

Bugungi madaniy hayotdagi yuksalishi. Albattata har bir xonadonda tug'ilgan chaqololga ism qo'yish ham an'analardan biri. Ismlar piri- badavlat, uvali-juvali xalq orasida obrosi baland insonga ism qo'ydirishadi holbuki shu tug'ligan chaqoloq ham shu nuroni singari elda aziz bo'lishi bilan bog'liq bir necha afsonlar avloddan ajdodlarga yetib kelgan.

Natijalar: Xalqimiz bugungi rivojlanib borayotgan shiddatli zamon bilan hamnafas b'olib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Bugungi kunda zamon talabiga t'olmas keladigan Smart Watch, notbook, telef'ôn, har xil turdagi gajitlardan foydalanib kelgan biz zamonda o'tgan asirlardan bizga yetib kelgan afsona, miqlari o'qiganimizda bir oz hayolga t'olishimiz mumkin.

Bu qanday bo'ladi? Naxotki shunday? degan savollar ham paydo b'olishi bejiz emas. Insonning tug'ilishidan tortib uni umring tugar onlarigacha b'olgan davrda hayratlanardi va lekin haqiqatga yaqin b'olgan voqealarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Takidlab o'tganimdek inson tug'ilishidan unga ism qo'yish bilan bog'liq. Qadimdan kelgan afsona agar yosh oilada farzand nobut b'olsa va bu holat qayta-qayta takrorlansa ota ovaga chiqib oq b'orini ovlab beshigiga uni tishini osib, terisiga chaqaloqning beshigini o'rashgan shu bilan bu dard forix b'olgan bu afsonaga O'zbekistonning Qashqadaryo tomonlarda ham hozirgi kungacha ham amal qilishadi. Xalqimizning tabiati nozik bo'lganki, uning tasavvurida raqamlar ranglar ham yangidan- yangi mulohaza yuritishga sabab bo'lgan. Akademik



shoirlarimiz G'ofur G'ulom, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida shoxning farzandi dunyoga kelganda mamlakatni qora mato bilan o'ratgan. Tabiiyki shaharning barcha devorlari qora harir libosga burkagan buning sababi qora rang ulug'lik, buyuklik ramzi hisoblangan. Yurtimizda ham shu sababli Qorajan , Qora botir , Qoraxon degan isimlarning qo'yilishi bejiz emas.

Xulosa: Hayot taraqqiyoti bilan asta- sekin rivojlanib mif, afsonlar bugungi hayot bilan birlashib qorishib bormoqda. Yozuvchilarmizdan G'ofur G'ulomning "Shum bola" asarida o'choq oldida ro'y bergan hodisalarni bunga misol qilib olsak bo'ladi.

Xalqmiz hozirgi paytda yo'lbars, ilon, bo'ri, ayiq, tuya, ot, qo'y, baliq, humoqushi singari jonzotlarga hurmatda, joyiz bo'lmasa ularning bezovta qilmaslik,yashash joyini buzmaslik ta'kidlaganlar. Qo'shni va o'zimizning xalqmizda ham hayvonlarni o'ziga homiy qilib olishgan. Gerb yoki bayroqlarida ramiz sifatida ularning tasviri tushurishgan. Gerbimizdagi humo qushi, bayrog'imizdagi ranglar jilosi yoki yulduz va oy ham bejiz emas ular ham ba'zi afsonlarga borib taqaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1) Jo'rayev M, Shomusarov Sh, o'zbek mifologiyasu va arab folklori, Toshkent 2001 -yil.
- 2) Ma'nolar maxzani. Toshkent 2001-yil.
- 3) O'zBE.Birinchi jild. Toshkent,2000 yil.
- 4) O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent 1990-yil.